

KASB YUZASIDAN O‘Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Tulqinboyev U.I.
(TDYU, Toshkent)

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmat, shaxsiy daxlsizlik, oila va voyaga yetmaganlarning manfaatlari, fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va shaxsiy huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi talablarni amalga oshirish muhim vazifalar sifatida belgilangan. Darhaqiqat, inson hayoti va sog‘lig‘i eng muhim ne‘mat hisoblanadi hamda uni himoya qilish har bir demokratik huquqiy davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

Bugungi kunda shaxsning kasb yuzasidan o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida ehtiyotsizlik oqibatida ko‘plab insonlarning vafot etishi jinoiy javobgarlikka tortiladigan eng ko‘p sodir etilayotgan jinoyatlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ayniqsa, tibbiyot xodimlarida tegishli huquqiy tayyorgarlikning yo‘qligi yoki uning yetarli darajada emasligi fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash borasidagi ishlarga jiddiy ziyon keltiradi va sog‘liqni saqlash sohasida qonunchilikni ta‘minlash darajasini pasaytiradi. Bu esa, o‘z navbatida, ayrim holatlarda tibbiyot xodimlari faoliyatiga nisbatan ko‘plab e‘tiroz, shikoyatlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lib, ularning murakkab holatga tushishiga, ba‘zan esa jinoiy javobgarlikka tortilishiga olib keladi. “Inson hayotini saqlab qolishda tezkor, aniq va o‘ta malakali harakatlar talab qilinadigan soha, bu – albatta tez tibbiy yordam tizimidir. Birgina 2021 yil davomida Xalq qabulxonalariga tez tibbiy yordamdan norozi bo‘lib, 50 mingdan ortiq murojaatlar kelib tushgan. Bugungi kunda sog‘liqni saqlash muassasalarida o‘z vazifasini suiiste‘mol qilish holatlari hali hamon uchray turibdi”[1].

Darhaqiqat, inson hayoti va salomatligi eng muhim ijtimoiy qadriyatlar bo‘lib, ularsiz u yoki bu darajada boshqa barcha qadriyatlar va manfaatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Ushbu qadriyatlarning katta ahamiyati ularni to‘liq himoya qilishni, shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasidagi jamoatchilik bilan aloqalarni o‘rganishning dolzarbligini talab qiladi.

Fuqarolarning hayoti va salomatligiga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishda tibbiy yordamning o‘z vaqtida va sifatli ko‘rsatilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiy yordam olish huquqi ajralmas konstitutsiyaviy huquqlardan biridir (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasi). To‘g‘ri amalga oshirilgan professional tibbiy faoliyat jamiyat tomonidan ma‘qullangan va foydalidir. Tibbiyot xodimlarining kasbiy burchlarini to‘g‘ri bajarishidan shaxslar ham, butun jamiyat ham manfaatdor hisoblanadi. Tibbiyot xodimlarining kasbiy majburiyatlarini bajarmasliklari yoki lozim darajada bajarmasliklari nafaqat fuqarolarning tibbiy yordamga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini buzadi, balki birlamchi ijtimoiy qadriyatlarga - odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga, jamiyat xavfsizligiga xavf tug‘diradi.

Professor M.X.Rustambayev kasb yuzasidan o‘z vazifalarini bajarmaganlik hamda kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaganlik tushunchalariga quyidagicha ta‘rif bergan: “Kasb yuzasidan o‘z vazifalarini bajarmaganlik – shaxsning o‘z kasb majburiyatlari doirasiga kiruvchi harakatlarni qilishi lozim va mumkin bo‘lgan hollardagi harakatsizligidir. Kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaganlik, deganda shaxsning o‘z kasb majburiyatlari doirasidagi harakatlarini uning ishi, kasbiy faoliyati talab etganidek bajarmaganligi tushuniladi”[2].

Profeesor F.Toxirovning qayd etishicha: “Shaxsning kasb yuzasidan o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi nafaqat ayrim harakatsizlik yoki harakatda, balki uzoq muddatli faoliyatsizlikda yoki lozim darajada bajarilmagan bir qator harakatlarda ham namoyon bo‘lishi mumkin”[3].

Amaldagi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining I bo‘limi shaxsga qarshi jinoyatlar deb nomlangan bo‘lib, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlar ushbu bo‘limning III bobiga kiritilgan. Mazkur bobning 116-moddasi kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik deb nomlangan bo‘lib, ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq, shaxsning o‘z kasbiga nisbatan beparvoligi yoki insofsizlik bilan munosabatda bo‘lishi tufayli kasb yuzasidan o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, ikkinchi qismiga ko‘ra qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq kasalga yordam ko‘rsatishi shart bo‘lgan shaxsning uzrli sababsiz shunday yordam ko‘rsatmaganligi badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, uchinchi qismga muvofiq ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar ehtiyotsizlik orqasida odam o‘lishiga sabab bo‘lsa, to‘rtinchi qismga muvofiq ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar ehtiyotsizlik orqasida odamlar o‘limiga, boshqacha og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa javobgarlik belgilangan.

Mazkur javobgarlik belgilangan jinoyatning obyekti inson hayoti yoki uning sog‘lig‘ining xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Obyektiv tomondan tahlil etilayotgan jinoyatning 1-qismi shaxsning o‘z kasbiga nisbatan beparvoligi yoki insofsiz munosabatda bo‘lishi tufayli kasb yuzasidan o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi jabrlanuvchining badaniga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lishida ifodalanadi. Shuningdek, ushbu jinoyatning subyekti o‘z kasbi bilan bog‘liq muayyan vazifalar yuklangan 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso shaxs bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonunining 30-moddasida: “Fuqarolar sog‘liqni saqlash tizimining har qanday davolash-profilaktika muassasida shoshilinch tibbiy yordam olish huquqiga ega. Tibbiyot va farmasevtika xodimlari fuqarolarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishlari shart. Ular shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishdan bo‘yin tovlaganlik, shuningdek fuqarolarning sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar uchun qonunga muvofiq javobgar bo‘ladilar”[4] – deb belgilangan. Ya‘ni bular shifokorlar, akusherlar, tibbiyot hamshiralari va boshqa shu kabi kasb egalari bo‘lishi mumkin. Shuningdek, maxsus qoidalarga binoan, zimmasiga bemorlarga yordam ko‘rsatish majburiyati yuklangan boshqa shaxslar (ichki ishlar xodimi, yong‘in xavfsizligi, avariya xizmatlari, transport tashkilotlari xodimlari va boshqalar) ham jinoyatning subyekti bo‘lishlari mumkin.

Subyektiv tomondan ushbu jinoyat egri qasdan hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilishi mumkin. Masalan, bemorga tibbiy yordam ko‘rsatish jarayonida vrach amaldagi diagnostika va davolash standartlari talablarini ijrosini ta‘minlamadi. Mavjud kasallikning asorati rivojlanib, bemor o‘limiga sabab bo‘ldi. Dastlabki tergov jarayonida vrach bilishi lozim bo‘lsa ham, amaldagi standartlar talablari bilan tanish emasligi aniqlandi. Ushbu jinoyat ehtiyotsizlik orqasidan, jumladan beparvolik oqibatida sodir etilgan deb topiladi. Shu bilan birga qilmishning jinoyat ekanligini istisno etadigan qator holatlar ham mavjud. Ular qatoriga tibbiyot xodimlar faoliyatida uchrab turadigan kasb bilan bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilik, oxirgi zaruriyat holatlarini kiritish mumkin.

I.G.Vermelning fikriga ko‘ra tibbiyot xodimlarini kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish uchun, noxush oqibatlar mavjud bo‘lgan holatlarda ham quyidagi uchta shartning mavjudligini: tibbiyot xodimi harakatlarining obyektiv noto‘g‘ri ekanligi va ularni umume’tirof etilgan hamda amaldagi rasmiy yo‘riqnoma, qoida, standartlarga ziddligi; tibbiyot xodimi o‘z kasbiy tayyorgarligi va toifasiga mos tarzda zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan harakat yoki harakatsizligi noto‘g‘ri ekanligini anglashi

lozim. Bunda xodimning bilimlari, amaliy ko'nikmalari va malaka majmualari mavjud sharoitda unga to'g'ri qaror qabul qilish va uni bajarish real imkonini bergan bo'lishi; tibbiyot xodimining harakati yoki harakatsizligi bevosita sabab-oqibatga bog'lanishiga ega bo'lgan jiddiy noxush oqibatlarni yuzaga keltirganligi[5] ni nazarda tutadi.

Bilamizki, tibbiyot xodimining aybi mavjudligini aniqlash sud-tergov idoralari uchun alohida murakkab holat hisoblanadi. Binobarin, jinoiy javobgarlik shaxs ijtimoiy xavfli qilmishni faqat qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir etgandagina yuzagakeladi. So'nggi holatni inobatga olganda, tibbiyot xodimlarining kasb yuzasidan jinoiy harakati tibbiyot xodimining qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan kasbiy majburiyatlarini buzishi sog'liqni saqlash borasidagi davlat manfaatlariga yoki alohida shaxslarning hayoti va sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazishi yoki zarar yetkazish xavfini yuzaga keltirishini anglatadi[6].

Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlik masalalari yuzasidan rivojlangan mamlakatlar qonunchiligidagi mazkur qilmishga nisbatan belgilangan choralarni tahlil etish ushbu jinoyatni yanada mufassil tushunish, javobgarlik belgilangan normalarni va qonunni qo'llash amaliyotini takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Jumladan, MDHning ko'plab davlatlarida, xususan Ozarbayjon (JK 142-modda), Qirg'iziston (JK 119-modda), Qozog'iston (JK 141, 254, 280-moddalar), Rossiya (JK 109, 118, 122, 124-moddalar), Bolgariya (JK 123-124-moddalar), Turkmaniston (JK 121, 122, 123-moddalar), Belarusiya (JK 160, 161, 162, 165-moddalar), Maldaviya (JK 162-modda), Gruziya (JK 129-modda), Ukraina (JK 136, 137, 139, 140-moddalar)da kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Shuningdek, GFR (JK 223-modda), Fransiya (JK 221-6-modda), Finlandiya (JK 44-bob 5-bo'lim), Vengriya (JK 165-modda), Shvesariya (JK 394-modda), Buyuk Britaniya (JK 1176-modda), Venesuela (JK 44-modda), Janubiy Koreya (JK 268-modda), Yaponiya (JK 211-modda), Malayziya (JK 217, 218, 219-moddalar), Xitoy (JK 409-modda), Yangi Zelandiya (JK 155-modda) hamda AQSH (JK 83, 93-moddalar)da ham kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi o'ziga xos normalar nazarda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlik masalalarini xorijiy davlatalarning ilg'or tajribalaridan foydalangan holda qayta ko'rib chiqib, amaldagi Jinoyat kodeksining 116-moddasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. Xalq so'zi. 2022 yil 19 mart, №59-60 (8121-8122). 2 b.
2. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 3. Maxsus qism. Shaxsga qarshi jinoyatlar. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik institut, 2018. 162 bet;
3. Toxirov F. Shaxsga qarshi jinoyatlar va ularning yuridik tahlili. Mas'ul muharrirlar: H.Boboyev, M.Rustamboyev. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – B. 83;
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.08. 1996 yildagi 265-I-son. <https://lex.uz/docs/-26013>;
5. Vrach faoliyatining huquqiy asoslari / Z.A. G'iyosov. -Toshkent: "Tafakkur-Bo'stoni", 2012. -123 b;
6. Сергеев Ю. Д. – Экспертно-правовые аспекты ненадлежащего оказания медицинской помощи, Журнал: Медицинское право, 2014 год. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=22616684>